

YOSHLARNING IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA  
SAN'ATINING O'RNI VA AHAMIYATI**Mahkamova Shoxida Raxmatullayevna***Musiqa ta'limi kafedrası dotsenti**Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** maqolada ijodiy va tafakkurli shaxsni shakllantirishda musiqa san'atining o'rni haqida gap boradi. "Individuallik", "ijodiy shaxs" tushunchalari ochib beriladi. Taniqli mahalliy va xorijiy olimlarning san'at, musiqa, musiqiy ta'lim, ijodiy shaxs, o'sib borayotgan avlodning ta'limini oshirish haqidagi so'zlari keltirilgan. Shaxsning ma'naviy faoliyatining mohiyati uning ichki dunyosi, boyligi va o'ziga xosligi bo'lib, uni ijodiy tabiat va yorqin shaxs sifatida tavsiflaydi. Mustaqillik, o'zini o'zi ta'minlash, mustaqillik, o'z-o'zini hurmat qilish shaxsni individuallashtirishning asosidir.

**Kalit so'zlar:** san'at, shaxsiyat, bastakor, ijodkorlik, musiqa, o'qituvchi, talaba yoshlar, individuallik, fikrlash.

Insonning ijodiy shaxsga aylanish istagida o'zini o'zi anglashining hayotiy istiqboli so'zsiz ijtimoiy ahamiyatga ega va nafaqat individual taqdirarga, balki jamiyat faoliyatini tashkil etishga ham hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Individuallik-bu har bir inson qiyofasida o'z davri haqiqatining bevosita ifodasidir. Bu asosan ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladigan ijtimoiy-amaliy toifadir. Shaxsiyatning namoyon bo'lishi doimiy tanlovda, o'zini namoyon qilishda sodir bo'ladi va o'ziga xos, o'ziga xos va universal orqali yangilanishni talab qiladi. Zamonaviy pedagogikaning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri ma'naviy boy va axloqiy jihatdan ideal, barkamol shaxsni shakllantirishdir. "Barkamol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash g'oyasi insonning milliy va umuminsoniy, jahon madaniyati va ma'naviy, axloqiy va jismoniy Kamolot yutuqlarini o'zlashtirishga bo'lgan doimiy istagini aks ettiradi."

Bugungi kunda ijodiy shaxs zamonaviy jamiyatning izchil rivojlanishining eng muhim sharti va eng muhim muammolarning markaziga aylanishi tobora aniq bo'lib bormoqda. Ijtimoiy vazifalarni amalga oshirishning shaxsiy printsipti tobora birinchi o'ringa chiqmoqda va progressiv o'zgarishlarning mezoni jamiyat tomonidan insonning ijodiy mohiyatini namoyon etish uchun taqdim etiladigan imkoniyatlar darajasidir.

Musiqiy tafakkur olamni bilish, his qilish, idrok etish va uning go'zalliklaridan lazzatlanishning alohida bir shaklidir. U ham go'zallik va mukammallik qonunlari asosida yashydi va rivojlanadi. U shu ma'noda din, fan va falsafa bilan bir qatorda turadi, insondagi insoniylikni kamol toptiradi, olam sirlarini kashf etadi.

Tafakkur insonning voqelikni bilishining eng yuqori darajasidir. Sezgi organlari orqali - tana va tashqi dunyo o'rtasidagi aloqaning yagona kanallari bo'lmish - miyaga ma'lumot yetkazib beriladi. Axborotning mazmuni miya tomonidan qayta ishlanadi.

Axborotni qayta ishlashning eng murakkab (mantiqiy) shakli fikrlash faoliyatidir. Insonning fikrlash faoliyati hayotning inson oldiga qoʻygan aqliy vazifalarini hal qilib, aks ettiradi, xulosalar chiqaradi va shu orqali narsa va hodisalarning mohiyatini anglaydi, ularning bogʻlanish qonuniyatlarini ochadi, soʻngra shu asosda dunyoni oʻzgartiradi.

Tafakkur nafaqat hislar bilan chambarchas bogʻliq, balki ular asosida shakllanadi. Xis qilishdan fikrga oʻtish jarayonida miyada fikrlash operatsiyalari xilma-xil boʻlib, bular tahlil va sintez, taqqoslash, abstraksiya, konkretlashtirish, umumlashtirish, tasniflashdir. Inson qaysi mantiqiy operatsiyalardan foydalanishi vazifaga sifatida miyaga qayta ishlash uchun uzatilayotgan ma'lumotlarning xususiyatiga bogʻliq boʻladi. Fikrlash faoliyati har doim qandaydir natijaga erishishga qaratilgan boʻladi. Ushbu sohada ilk izlanishlar musiqiy tafakkur bilan bogʻliq tushunchalarni asoslanishiga tegishli. Ushbu ta'limotining mohiyati quyidagicha: musiqiy fikr intonatsiya orqali namoyon boʻladi va oʻzini namoyon qiladi. Intonatsiya musiqiy nutqning asosiy elementi sifatida fikrni bir joyga jamlash, musiqaning semantik asosiy printsiptir. Intonatsiyaga hissiy munosabat, uning ekspressiv mohiyatiga kirib borish musiqiy fikrlash jarayonlarining boshlangʻich nuqtasidir.

Musiqiy tafakkur musiqa tili asosida amalga oshiriladi. U musiqiy tilning elementlarini tuza oladi, tuzilmani shakllantiradi: intonatsiya, ritm, tembr, tematik va boshqalar. Musiqiy tafakkurning xususiyatlaridan biri musiqiy mantiqdir. Musiqiy tafakkur musiqiy faoliyat jarayonida rivojlanadi. Musiqiy axborot musiqiy til orqali qabul qilinadi va uzatiladi, uni bevosita musiqiy faoliyat bilan shugʻullanish orqali oʻzlashtirish mumkin. Musiqiy til ulardan foydalanish qoidalariga (me'yorlariga) bo'ysunadigan barqaror turdagi tovush birikmalarining (intonatsiyalarining) ma'lum bir "to'plami" bilan tavsiflanadi. Shuningdek, u musiqiy xabarlarining matnlarini yaratadi.

Milliy musiqiy tafakkur muayyan bir millatning his-tuygʻu va kechinmalarini ifoda etadi, shuning uchun ham unga milliylik xosdir. Unda millatning butun kechmishi, tarixi, fantaziyasi, milliy ruhi, estetik didi, orzu va armonlari, quvonch va tashvishlari, dard va alamlari mujassamlashgan boʻladi. SHuning uchun ham milliy musiqa san'atisiz Vatan mustaqilligi uchun fidoiy insonlarning voyaga yetishini xatto tasavvuf ham qilib boʻlmaydi. Milliy musiqani tushunmaydigan va qadrlamaydigan kishilarning milliy qiyofa, milliy ruh va milliy madaniyatdan begonalashishi bejiz emasdir.

Milliy musiqa boshqa xalqlar san'ati bilan uzviy bogʻliqlikda rivojlanadi, biroq hech qachon u milliy zamindan ajrab, uzilib qolmaydi. O'zbek milliy musiqa san'ati mahalliy xalqlarning milliy ohanglari zaminida shakllanib kelgan. Har bir milliy madaniyat uchun ayni vaqtda umuminsoniylikka xosdir, umuminsoniylik milliylik orqali namoyon boʻladi. Musiqaning milliyliigi mazkur xalqning uzoq tarixiy kechmishi, turmush va hayot tarzi, mehnat madaniyati va milliy an'analar bilan uzviy bogʻlangandir. O'zbek milliy musiqa san'ati xalqimiz hayotining badiiy aks-sadosi

sifatida vujudga kelar ekan, unda kishilarning kayfiyati va mehnat faoliyatiga, shuningdek, ularning milliy tafakkuriga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek milliy musiqa san'atida kishilarning tabiat bilan muloqoti, ularning ijtimoiy bilim va tajribalari o'z aksini topgan. Xalqlarining milliy musiqa san'atidagi yaqinlik va mushtaraklik ham mazkur xalqlarning turmush tarzi, hayot falsafasi va hissiy kechinmalaridagi yaqinlik bilan shartlangandir. Lekin shunga qaramay, mamlakatimiz xalqlarining har biri, jumladan, o'zbek xalqi ko'p asrlik tarixi mobaynida o'ziga xos takrorlanmas badiiy madaniyat yaratdilar.

Xalqimizning milliy musiqa san'ati inson madaniyati va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashqlari va mehnat jarayonlarida muayyan vazifani bajardi. SHuning uchun musiqa o'z mazmuniga muvofiq holda bir necha uslub, tur va janr guruhlariga bo'linadi. Alla, zikr, marsiya, sarbazcha, vals, marsh, messa kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'ladi. Ashula, cholg'u, kuy, maqom yo'llari, kontsert, miniatyura, ramans va boshqalarda estetik ta'sir o'tkazish vazifalari asosiy o'rin tutadi. Janrlar o'z navbatida, diniy qo'shiq, yoshlar qo'shig'i, maishiy, ommaviy, harbiy qo'shiq kabi turlariga bo'linadi.

Ulug' san'atkorlar tomonidan yaratilgan mumtoz musiqa madaniyatimizning boy tarixi, ijrochilik uslubi va ularning mahorat sirlarini har tomonlama ilmiy tadqiq etmay turib, musiqa madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini belgilab bo'lmaydi.

Abadiylikka dahldor bo'lgan buyuk san'at asarlari butun bir tarixiy davrning ma'naviy-estetik saviyasini o'zida yaqqol aks ettiradi. SHu ma'noda o'lmas musiqa asarlarining dunyoga kelishi tasodif emas, balki badiiy-estetik taraqqiyotning qonuniyatli mahsulidir. Ulug' ajdodlarimizning ana shunday an'analarini davom ettirgan holda, mamlakatimizda milliy musiqa san'atining keng rivojlantirish bizning burchimizdir. Uni ijtimoiy buyurtma bilan yaratish ham, xalqqa majburan targ'ib etish ham mumkin emas. U ijodkordan ham, tinglovchidan ham yuksak darajadagi samimiyat, ezgulik va nozik didni talab etadi.

Milliy musiqa san'atida ruhning o'lmasligi, uzoq ajdodlar bilan bugungi avlodlar ma'naviyatidagi vorislik, ruhiy yaqinlik ko'zga yaqqol tashlanadi. Bugungi yosh avlodga ajdodlorimiz ruhi va kechmishini singdirmoq, ularning qonida ajdodlarimiz shijoati va jasoratini jo'sh urdirmoq uchun, shoira Saida Zunnunova ta'biri bilan aytganda, tarixdan so'zlash emas, balki bitta "CHO'li Iroq"ni chalib berish kifoyadir.

O'zbek milliy musiqa san'atida ajdodlarimizning ming yillar osha ohanglariga tizilgan mangu barhayot ruhi naqshlangan bo'lib, qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'rta asr mumtoz musiqiy merosini asrb-avaylab va o'rganib, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish, ularning musiqiy tafakkurini shakllantirish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlar, nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari muntazam

ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Milliy qo'shiq barcha san'atlar ichida o'zining mutloq erkinligi, nihoyatda nafis bo'lib, ularni o'rganmay va ularga tayanmay turib, milliy istiqbolimizning ma'naviy-ruhiy poydevorini yaratish ham, shuningdek, o'quvchi yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirish, ajdodlarimizning an'alariga sodiq vatanparvar avlodning voyaga yetkazish ham mumkin emasdir.

O'tgan davrlar mobaynida mamlakatimizda an'anaviy ijrochilikda musiqiy folklor yangi bosqichga ko'tarildi. Musiqiy folklorlarni xalqimizning etnik joylanishi sharoitidan, barcha vohalarning urf-odatlarini nuqtai nazardan kelib chiqqan holda tabiiy ijroviy ko'rinishi, kiyimlari va o'ziga xos musiqa sozlaridagi musiqiy ko'rinishi saqlanib qolgan. Yangilik sifatida xalq folklor ijrochiligining milliy estrada yo'nalishiga uyg'unlashgan holda yangi ijroviy namunalari ham namoyon bo'lmoqda. Bu ko'rinishlar xalq musiqiy folklor ijodiyotini yangilanish bosqichiga ko'tarilganidan dalolatdir. Respublikamizda ushbu janrda ijod qilayotgan "Besh qarsak", "Boysun", "Gulyor", "Omonyor", "Gulchehralar", "Doston", "Besperde", "Orzu", "Yoryor!", "CHavgi", "Mohi Sitora" singari ko'plab ansambllar o'zlarining yorqin ijodlari bilan namuna bo'lmoqdalar.

Yana bir xalqona musiqiy yo'nalish mumtoz an'anaviy musiqiy ijrochiligi sohasida ham e'tiborli ishlar amalga oshirildi. Asrlar qa'ridan ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelgan xalq an'anaviy musiqamiz o'ziga xos tarzda davom etmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarida xalq mumtoz qo'shiqchiligi, xalq baxshichilik san'atini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu borada o'z davrida Prezident farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasi xalq xofizi", O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi"[4] faxriy unvonlarining ta'sis etilishi ushbu sohaga bo'lgan e'tibordan dalolatdir.

Xalq musiqa ijodiyotini ilmiy tahlil qilish, musiqa ilmini amaliyot bilan bog'lash borasida o'zbek musiqashunos olimlarining xizmatlari ham beqiyos bo'lmoqda. Natijada qator o'quv-uslubiy qo'llanmalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Ilmiy izlanish natijasida yangi-yangi ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga kelmoqda.

Bugungi kunda turk, eron, arab estrada musiqasidan foydalanib, o'zbekcha so'z qo'yib aytilayotgan qo'shiqlar ko'payib borayotganligi achinarli holdir. Yana bir tomoni, yengil-yelpi musiqadagi ohanglar usuliga o'lchab, sayoz so'zlardan tashkil topgan, muallifi noma'lum shoirlarning she'rlardan foydalanilayotganligini ham ta'kidlab o'tishimiz kerak. Bu esa o'quvchi yoshlarning musiqiy tafakkurning shakllanishida salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada yuzlab esda qolmaydigan bir martalik yoki mavsumiy qo'shiqlar ko'payib bormoqda. Yana shuni aytib o'tish kerakki, miliy estrada ruhidagi qo'shiqlar ijrosiga qo'l urishda an'anaviy qo'shiqlarni va xalqimizning sevimli qo'shiqlarini, xalq bastakorligining, mashhur qo'shiqlarni estrada yo'liga solib, buzilgan holda ijro etishlari ham uchramoqda. Ulug' ajdodlarimiz o'z milliy musiqa san'atining inson shaxsini kamol toptirish, olijanob insoniy fazilatlarini tarbiyalashdagi ahamiyatiga yuksak baho berganlar. Jumladan, musiqa san'atining barcha turlari kishilarga badiiy-estetik zavq beribgina qolmay, ilmiy tushunchalar bilan ifodalash g'oyat mushkul bo'lgan olam sirlari haqida bilimlar berilishi, hayot haqiqatini

badiiy-estetik vositalari orqali idrok etishga yaqindan yordam ko'rsatishini o'zlarining asarlarida bayon etganlar.

O'zbek milliy musiqa san'atida xalqimizning uzoq tarixi, orzu-armonlari, hayot haqidagi bilim va tasavvurlari mujassamlashgandir. Har bir halqning ma'naviy salohiyati, jahon madaniyati rivojiga qo'shgan hissasi uning musiqiy madaniyati bilan belgilanadi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, o'zbek milliy musiqa san'atini yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos va betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xalqimizning badiiy-estetik madaniyati, jumladan, milliy musiqa san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan har bir san'atkor hech shubhasiz, o'zi yashagan davr ruhini, muxlislarning estetik didi, ma'naviy ehtiyojlari va salohiyatini o'zida to'la mujassamlashtirgan, o'z asarlari bilan zamondoshlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan. SHuningdek, yoshlar o'rtasida targ'ib etishda milliy musiqa san'ati durdonalarini va uning rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk san'atkorlar hayoti va ijodini chuqur o'rganish katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga egadir.

Eng muhimi, bugungi kunda o'zbek milliy musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida, shuningdek, musiqiy tafakkurini shakllantirishda, dunyoqarashini kengayib borishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Vatan tarixi voqea va hodisalar tarixidan iborat emas, balki ma'naviy yuksalish tarixidir. Hozirgi xalqimiz tamonidan asrab avaylab kelinayotgan va abadiylikka daxldor maqom musiqalari, xalq an'anaviy qo'shiqlari donishmand va ijodkor ajdodlarimizning buyuk kashfiyoti, ma'naviy kamoloti sari tashlangan salmoqli qadamidir.

Xulosa. Shu o'rinda mamnuniyat bilan ta'kidlash o'rinliki, o'zbek xalqining necha asrlardan buyon bizgacha yetib kelgan o'zbek milliy musiqa san'ati durdonalari bugunga kelib to'liq tiklangan va notalashtirilgan. Bunda marhum ulug' ustozlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Yuz yillar o'tgandan so'ng ham bu meros yangi-yangi to'ldirilgan ijrolar bilan sayqallanib boraveradi. Insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim qonuniyatlaridan yaratuvchan qudratini tobora chuqurroq his eta boshlaydi. San'atkorning jamiyatda tutgan o'rni, ahvoli va san'atga bo'lgan munosabati jamiyat ma'naviy salohiyatining o'ziga xos mezoni sifatida baholanishi bejiz emasdir.

Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, o'zbek milliy musiqa san'atini yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos va betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xalqimizning badiiy-estetik madaniyati, jumladan, milliy musiqa san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan har bir san'atkor hech shubhasiz, o'zi yashagan davr ruhini, muxlislarning estetik didi,

ma'naviy ehtiyojlari va salohiyatini o'zida to'la mujassamlashtirgan, o'z asarlari bilan zamondoshlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan. Shuningdek, yoshlar o'rtasida targ'ib etishda milliy musiqa san'ati durdonalarini va uning rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk san'atkorlar hayoti va ijodini chuqur o'rganish katta tarbiyaviy va ma'rifiy ahamiyatga egadir.

#### ADABIYOTLAR:

1. Кадирова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. *Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании*, 1(1), 6-11.
2. Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrastalar. *Monografiya*, 1(1), 120.
3. Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin “white square”. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.
4. Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the “Fergana school of poetry” in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.
5. Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.
6. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.
7. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
8. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
9. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.
10. Akhmedov, B. A. (2024). Dialogue Leading to a Problematic Situation and Its Place In School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 28, 17-21.
11. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic methods in education based on conflict dialogue. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(3), 1-7.
12. Akhmedov, B. A. (2024). Reorganization of teaching manual in higher education in Tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 24, 13-25.
13. Akhmedov, B. A. (2024). Methods Of Improving the Quality of Dissertation Works in The Exact Sciences of The Tashkent Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 39-57.

14. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic dialogue as a response to the challenge of the Epoch. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(1), 1-9.
15. Akhmedov, B. A. (2023). Physics is a Science Forming Knowledge About Health. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 350-355.
16. Тангиров, И. Х., & Ахмедов, Б. А. (2021). Перспективы развития правового государства. *Политика и общество*, 7(18), 178-186.
17. Akhmedov, B. A., & Muxamedov, G. I. (2021). *Klaster Mobile DGU 09834*.
18. Akhmedov, B. A. (2023). Use of information technology in medicine, history, biology, literature, physical education. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 17-29.
19. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
20. Akhmedov, B. A., & Khimmataliyev, D. O. (2023). The emergence-theoretical aspects of dialogue in education. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(2), 1-7.
21. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
22. Akhmedov, B. A. (2023). Prospects and trends of digital twins in education. *Uzbek Scholar Journal*, 23, 6-15.
23. Akhmedov, B. A., Makhmudova, D. M., & Akhmedjonov, D. G. (2024). Using the Socrates method in improving the quality of education in pedagogical universities. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 2(1), 16-24.